



Rezident jismoniy shaxslarga chet el valyutasini sotish tartibi

Chet el valyutasini ayirboshlash operatsiyalari bazaviy hisoblash miqdorining 500 baravari miqdoriga teng bo‘lgan yoki undan oshgan hollarda, jismoniy shaxslardan shaxsini tasdiqlovchi hujjat talab etiladi.

Rezident jismoniy shaxslarga ekvivalenti 100 AQSh dollargacha (shu jumladan, ekvivalenti 100 AQSh dollariga teng miqdorda) naqd chet el valyutasini sotish operatsiyasi ulardan shaxsini tasdiqlovchi hujjat talab etilmagan holda shoxobchaga topshirgan naqd yoki shaxsiy bank kartasidan yechib olingan milliy valyuta miqdori doirasida amalga oshiriladi.

Bunda, rezident jismoniy shaxslarga chet el valyutasi sotilganda 09007-son shakldagi ma’lumotnama ikki nusxada rasmiylashtiriladi. Ushbu ma’lumotnomaning bir nusxasi rezident jismoniy shaxsga beriladi, ikkinchi nusxasi uning shaxsini tasdiqlovchi hujjati nusxasi (ekvivalenti 100 AQSh dollaridan oshgan miqdordagi chet el valyutasi sotilganda) va boshqa hujjatlar bilan birga kunlik hujjatlarga tikiladi.